6.http://geografiya.uz/ekologiya/10746-iqlim-ozgarishi-yer-yuzi-uchun-xavfli.html
7. Djo‘Rayeva, L. (2020). O‘ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI VA UNI TASHKIL ETISH MASALALARI. Scientific progress, 1(1), 89-93.

TA’LIM XIZMATLARI:UNING MOHIYATI, AFZALLIKLARI VA UNING IQTISODIY-IJTIMOIY HAYOTDAGI O’RNI VA AXAMIYATI.

Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot yo’nalishi magistranti
Karimjonova Madinabonu

Annotatsiya*: Ushbu maqolada “Ta’lim xizmatlari”, “Ta’lim xizmatlari bozori” tushunchalarining mazmuni ochib berilgan. Bugungi globallashuv davrida iqtisodiyotga va insonlarning ijtimoiy hayotiga ta’siri, tobora rivojlanib xilma-xilligi oshishi va uning natijalari rivojlangan mamlakatlar misolida bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *ta’lim, ta’lim xizmatlari, rivojlanish, universitet, iqtisodiy-ijtimoiy ta’sir, diplom.*

EDUCATIONAL SERVICES: ITS ESSENCE, ADVANTAGES AND ITS PLACE AND IMPORTANCE IN ECONOMIC AND SOCIAL LIFE

Namangan State University
Master's student of economics
Karimjonova Madinabonu

Abstract*: This article describes the concepts of "Educational services" and "Educational services market". In today's era of globalization, the impact on the economy and people's social life, its development and diversity, and its results are described on the example of developed countries.*

Key words: *education, educational services, development, university, economic and social impact, diploma.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ УСЛУГА: ЕЕ СУЩНОСТЬ, ПРЕИМУЩЕСТВА, МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ

Наманганский государственный университет
Магистр экономики
Каримжонова Мадинабону

Абстракт: *В данной статье раскрыты понятия «Образовательные услуги» и «Рынок образовательных услуг». В современную эпоху глобализации на примере развитых стран описывается влияние на экономику и социальную жизнь людей, ее развитие и многообразие, а также ее результаты.*

Ключевые слова: *образование, образовательные услуги, развитие, университет, экономический и социальный эффект, диплом*

Ta’lim xizmati – ta’lim xizmatlari turli xil fanlar va mutaxasisliklarni o’qitish va o’qitishni ta’minlaydigan muassasalarni o’z ichiga oladi.O’quv mashg’ulotlari ixtisoslashtirilgan maktab, kollej, universitet, o’quv markazlarni o’z ichiga olishi mumkin.[2]

Bugungi globallashuv tobora avj olayotgan bir vaqtda rivojlanish va taraqqiy etishning eng samarali usuli ta’lim tizimini, ta’lim xizmatlarini rivojlantirishdir. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasida ta’lim xizmatlari iqtisodiy-ijtimoiy holat va siyosiy vaziyatga qarab xilma-xillashib, ta’lim xizmatlari bozori va uning ko’lami xam ortmoqda.Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta’lim xizmati jamoat mulki sifatida tavsiflanadi.

Ta’lim xizmatlari bozorida xam talab, taklif, narx va raqobat ularning xususiyatiga ko’ra shakllanadi.Bazi iqtisodiy adabiyotlarda pullik ta’lim xizmatlari bozor xizmatlari, bepul ta’lim xizmatlari esa nobozor xizmat degan nuqtai nazar mavjud.Bepul ta'lim xizmatlari faqat bevosita ta'lim oluvchilar(talabalar) uchundir. Bu uchun esa davlat hisobidan pul mablag’lari ajratilishi zarur.

Ta’lim xizmatlari bozori sub’ektlariga quyidagilar kiradi:

-tabaqalashgan taklif bilan bozorga kiruvchi ishlab chiqaruvchilar(ta’lim tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, masalan xususiy oliy ta’lim muassasalari, o’quv markazlari)

- iste’molchilar, biror bir fanni yoki mutaxasislikni o’rganishni xoxlovchilar, asosan talabalar

Ta’lim xizmatlari ob’ektlariga ta’lim xizmatlarini ta’minlash uchun zarur bo’lgan imo-ishorat va binolar kiradi.[3]

Barcha sohalarda bo’lgani sari ta’lim sohasini rivojlantirishga xam investitsiyalar ajratilda va asosan bu investitsiyalar odamlarga yo’naltiriladi. Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, AQSH milliy boyligi tarkibida asosiy ishlab chiqarish fondlari(binolar, inshootlar, mashina va uskunalar) faqatgina-19%, tabiiy resurslar -5%, inson kapitali esa 76% ni tashkil etadi. G’arbiy yevropada tegishli ko’rsatkichlar 23%, 2% va 75%, Rossiyada esa 10%, 40% va 50% ni tashkil etadi.

YaIM ga ta’limning ulushi sifatida ma’lum bir yilda mamlakatda ta’limga sarflangan umumiy, davlat va xususiy xarajatlarning umumiy miqdorining YaIM ga nisbatan foizi tushuniladi.[4] Xususiy ta’lim xarajatlari tarkibiga xalqaro agentliklar va boshqa xorijit tashkilotlar kimaydi. Xarajatlar o’qitish va ta’lim jarayoni bilan bog’liq barcha xarajatlarni o’z ichiga oladi.

Ta’lim, ta’lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga ta’siri kattadir. Hususan, qashshoqlik darajasi kamayadi, ta’limga sarflanayotgan xarajatlar natijasida iqtisodiy o’sish bo’ladi va YaIM ko’payadi, hayot sifati darajasi oshadi. Buning natijasida neonatal o’limlar kamayadi, o’rtacha umr ko’rish davri uzayadi.

Global Data hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020-yilda dunyo bo‘ylab ta’limga yillik xarajatlar 3,5 trillion dollarni tashkil etgan. Ta’limga eng ko‘p mablag‘ sarflagan davlatlar qatoriga AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Avstraliya kiradi. Ta'limga eng kam xarajat qiladigan davlatlar qatoriga Latviya, Xorvatiya, Estoniya, Islandiya, Kipr va Litva kiradi.

2020-yilda AQShda ta’limga yalpi ichki mahsulotga nisbatan xarajat 6,4 foizni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 3.8 foizga oshgan. 2010-2020 yillar oralig'ida Qo'shma Shtatlarda ta'limga sarflangan yalpi ichki mahsulotning foizi sifatida 16,7 foizga kamaydi. 2020 yilda AQSh ta’limga 1,3 trillion dollardan ortiq mablag‘ sarfladi, xususiy ta’lim xarajatlari 354 milliard dollar va davlat ta’lim xarajatlari 984 milliard dollarni tashkil etdi.[4]

Kanadada yalpi ichki mahsulotning foizi sifatida ta'limga sarflangan xarajatlar 2020 yilda 11,4% ni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 10,7% ga o'sdi. 2010-2020 yillar oralig'ida

Kanadada ta'limga sarflangan yalpi ichki mahsulotning foizi sifatida 63,5 foizga o'sdi. 2020 yilda Kanada ta'limga 188 milliard dollardan ortiq mablag' sarfladi, xususiy ta'lim xarajatlari 40 milliard dollar va davlat ta'lim xarajatlari 148 milliard dollarni tashkil etdi.

Dunyoning eng rivojlangan ikki mamlakatlarida ta’limga, ta’lim xizmatlariga ajratilayotgan xarajatlar va investitsiyalar natijasi sifatida YaIM ning o’sishini ko’rishimiz mumkin. Ta’limga berilayotgan e’tibor tufayli bu mamlakatlarda o’qishni va ishlashni istovchilar soni ko’pchilikni tashkil etadi. Buning natijasida ta’lim olishda yuqori salohiyatga ega insonlar, ixtirochilar , bir so’z bilan aytganda o’z sohasining yaxshi mutaxasislar va yaxshi mutaxasis bo’lish istagidagilar bu mamlakatlarga oshiqishmoqda. O’z navbatida ushbu jarayon yana ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotining o’sishiga va taraqqiy etishiga olib keladi.

Rivojalanyotgan mamlakatlarda ta’lim tizimini yaxshilash uchun moliyaviy yordam beruvchi Ta’lim Bo’yicha Global Xamkorlik tashkiloti(GPE) ga ko’ra, ta’lim, ta’lim xizmatlari va infratuzilmasini yaxshilash, rivojlantirish va unga sarmoya kiritish mamlakat o’z kelajagi uchun qo’yayotgan eng yaxshi sarmoyadir.

"Ta'lim o'zgarishlarning kuchli agenti bo'lib, salomatlik va turmush darajasini yaxshilaydi, ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi".[5]

Boshlang’ich va asosiy ta’lim kishilar uchun juda foydali va muhim bo’lsada, yuqori ta’lim – o’rta maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqalar yanada foydalidir. GPE ta’lim, ta’lim xizmatlari, ta’lim jarayonlari va uning aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta’sirni o’rganishdi va quyidagilarni aniqlashdi:

-420 million kishi o'rta ma'lumotga ega bo'lsa, qashshoqlikdan qutuladi.

-onasi o'qiy oladigan bolaning besh yoshdan keyin yashashi ehtimoli 50% ga ko'proq.

-qo'shimcha bir yil maktabda o'qish ayolning daromadini 20% gacha oshirishi mumkin.

Yuqoridagi prognozlardan ko’rinadiki ta’lim olishga qancha ko’p e’tibor qaratilib, sarmoyalar kiritilsa u keyinroq bir necha barobar bo’lib qaytadi, kishilar ta’lim olib o’z hayotini rivojlantirish barobarida atrofidagi yaqinlarining farovon yashashlariga imkon yaratishadi va birgalikda butun jamiyat, mamlakatning rivojlanishiga sabab bo’lishadi.

Uzoq yillardan beri ko’p mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot institutlari, olimlar YaIM va ta’lim o’rtasidagi bog’liqlikni kuzatib, aniqlashmoqda. Huhusan, YUNESKO ta’limga sardlanayotgan har bir dollar(AQSH dollari) o’rtacha 10-15 dollar bo’lib qaytayotganini aniqlashgan.

Qo'shma Shtatlardagi Milliy Iqtisodiy Tadqiqotlar Byurosi (NBER) tadqiqotiga asoslanib, The Learning Agency tomonidan o'tkazilgan so'nggi tahlil shuni ko'rsatdiki:

Yaxshiroq matematik qobiliyatlar har bir kishining ish haqini yiliga 21 000 AQSh dollariga (AQSh dollari) oshirishi mumkin.

O'qish va yozish ko'nikmalarini yaxshilash, odamning yillik ish haqining 11 000 dollar (AQSh dollari) oshishiga olib kelishi mumkin.

O'rta maktab diplomi bilan bitirish har bir kishining yillik ish haqiga qo'shimcha deyarli $7,000 (AQSh dollari) tengdir.[5]

Shundan kelib chiqadiki ta’lim butun dunyoda, AQSH, Kanada umuman barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda muhimdir, ammo nega degan savol tug’iladi, ularning ayrim sabablari quyidagilar:

- tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirib rivojlantiradi va muammolarga qanday yechim topishni o’rgatadi
- aholining savodxonlik darajasi oshadi
- kishilardagi ijodkorlik salohiyatini namoyon qiladi va uni rivojlantirishga imkon beradi
- tadbirkorlik qobiliyatini oshiradi
- kishilarning o’z salohiyatlari, imkoniyatlari va kamchiliklarini ko’rishga imkon beradi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD) yaqinda e'lon qilingan "Ta'limdagi yo'qotishlarning iqtisodiy ta'siri" nomli hisobotida mualliflar Erik A. Xanushek va Ludger Voessmann COVID-2020 ga javoban dunyo bo'ylab maktablarning yopilishining ta'sirini ko'rib chiqdilar.

Ular orib brogan izlanish natijasida quyidagi xulosalarga kelishdi:

-talabalar pandemiya davrida o’rganishi kerak bo’lgan bilimlarni o’zlashtira olmaganligi tufayli hayotlari davomida 3% kamroq daromad ko’rishadi

-maktablarning yopilishi natijasining YaIM ga ta’sirini kamaytirish ushbu asrning oxirigacha muammo bo’lib qoladi

-ta’limdagi bunday uzilish tufayli YaIM dagi 1,5% kamayish asrning oxirigacha davom etadi.Ya’ni oldingi o’sish tendensiyasi bilan xozirgini solishtirganimizda agar pandemiya bo’lmaganida 1,5% ko’proq YaIM erishilishi mumkin edi.[1]

Ammo ta’lim, ta’lim xizmatlari buni asta sekin bartaraf eta oladi. GLobal inson taraqqiyoti professori Jorj Psacharopulos va Jahon banki maslahatchisi Garri Patrinos tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini 10 foizga oshiradi.Shuningdek ularning fikriga ko’ra oily ta’lim zaxiralarining bir yilga o’sishi YaIM ni 0,24% ga oshirishi mumkin.[5]

Ammo panndemiya davrining xam ta’lim sohasini rivojlantirishga, yangilik qo’shilishiga bir xissasi bo’ldi, hususan, masofaviy, online ta’lim, online ta’lim xizmatlari rivojlana boshladi. Xar doim vaqt, sharoitga qarab talab va taklif xam o’zgaradi. Bozor va uning qonunlari xam shunga moslashadi. Ta’lim xizmati ko’rsatuvchilar xam shu jumladan ta’lim oluvchilar uchun bir qator qulayliklar taqdim eta boshlashdi. Hususan, Wrexham universiteti tarkibiga kiruvchi Shimoliy Uels menejment maktabining 100% onlayn MA Education masofaviy ta'limni taklif eta boshladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim xizmatining rivojlanishiga sharoit yaratish, qo’llab-quvvatlash natijasida uni sotuvchiga xam va oluvchiga xam manfaatlidir. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va unda ta’lim va ta’lim xizmatlarining o’rni va axamiyatini ularning YaIM(GDP) dagi o’sish va undagi ta’lim xizmatining ulushini, insonlarning ijtimoiy hayoti va sharoitining tobora yaxshilanib borishida ko’rishimiz mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1)The Economic Impacts of Learning Losses Eric A. Hanushek Ludger Woessmann September 2020

2) Ta’lim xizmatlari bozori va uning tartibga solinishi Radjabova Gavxar Umarovna

3)About the Educational Services sector https://www.bls.gov/iag/tgs/iag61

4)Expenditure on Education as a % of GDP in the US https://www.globaldata.com/data-insights/macroeconomic/expenditure-on-education-as-a-of-gdp-in-the-united-statesExpenditure on Education as a % of GDP in the United States (2010 - 2020, %)